

**BUYUK DAVLAT ARBOBI AMIR TEMUR ADOLATIDAN SO'Z OCHUVCHI QONUNIY
ASAR**

Obidjonova R

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi

Tel.: 95 774 31 22;

email: ruxshonaobidjonova0212@gmail.com

Annonatsiya: Konstitutsiya tushunchasi yaqin asrlarda kirib kelgan bo'lsada, ushbu tushuncha ma'nosi O'rta asrlarda tuzuk deb berilgan tushunchaning xuddi o'zginasi ekanligining guvohi bo'lamiz. Demak bizdan oldin ham qonunlar bor ekan, biz o'sha qonunlar asosida o'z Konstitutsiyamiznin ishlab chiqqan ekanmiz. Amir Temurninh ushbu asari ham o'rta asrlarda ham hozirgi asrimizdaadolatli va ishonchli manba vazifasini o'tab kelmoqda. Milliy davlatchiligidizning asosiy va bosh qomusi bo'lgan Konstitutsiyamiz bizning asosiy qonunimizdir. Chunki ushbu qonun asosida har bir shaxsning hayoti, erkinliklari, demokratik davlatda daxlsiz yashashi mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu qonunimizning tag ma'nosida hayotda kerak bo'lgan tizimli va haqqoniy adolatparvarlik timsoli yotadi. Bu qonunlarning tubida esa ota-bobolarimizdan qolgan ayrim mashvarat-u qoidalar ham mavjud. Turkiy o'zbek davlatchiligidizning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk o'rta asrlarda Amir Temur tomonidan chiqarilgan qonun va mashvaratlar ham ilk Konstitutsiya vazifasini o'tagan. Amir Temurning bizga meros qilib qoldirgan "Tuzuk"lari nafaqat davlat ishlarida, qonunlarni tartibga solishda, balkim, hayotiy adolatlarni joriy qilishda ham qo'l kelib, bizning hayot tarzimizni tartibga solishda ham yordam berib kelmoqda, desak adashmagan bo'lamiz.

Kalit so'zlar; Amir Temur, hayotiy hikmatlar, adolat timsoli, qonun, to'ra, tuzuk, norma, siyosat, Konstitutsiya va boshqalar.

Milliy davlatchiligidizning asosiy va bosh qomusi bo'lgan Konstitutsiyamiz bizning asosiy qonunimizdir. Chunki ushbu qonun asosida har bir shaxsning hayoti, erkinliklari, demokratik davlatda daxlsiz yashashi mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu qonunimizning tag ma'nosida hayotda kerak bo'lgan tizimli va haqqoniy adolatparvarlik timsoli yotadi. Bu qonunlarning tubida esa ota-bobolarimizdan qolgan ayrim mashvarat-u qoidalar ham mavjud. Turkiy o'zbek davlatchiligidizning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk o'rta asrlarda Amir Temur tomonidan chiqarilgan qonun va mashvaratlar ham ilk Konstitutsiya vazifasini o'tagan. "To'ra-tuzuk" deb atalgan ilk o'rta asrlardagi ushbu qonun xalqning yashashi, urush va mashvaratlar borasidagi mukammal qonun vazifasini o'tagan. Davlatni idora qilish uchun iste'moldagi izohli huquqiy ma'nosiga ko'ra "To'r-tuzuk" urf-odat, tartib, qonun-qoida ma'nolariga ega bo'lsa, zamonaviy talqinda esa sinonim ko'rinishdagi ma'nosi esa kodeks, doktrina va ularning mujassamlashgan ko'rinishi Konstitutsiya sifatida qo'llanilgan.

“Temur tuzuklari”ning siyosiy va huquqiy o’rni va vazifalarini hamda amaliyotiga tatbiqi xususida so’z yuritsak, quyidagi yo’nalishlarda o’zini namoyon qiladi. Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilmu fan, san’at va me’morchilikka oid qarashlari, hayotning ma’no-mazmuni, insonni ulug’laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, dinu diyonat vaadolatni joyiga qo‘yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko‘zlab, el manfaatini o‘ylab ish tutish bilan bog‘liq ibratli fazilatlarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Aynan mana shunday masalalar Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo‘lgan “Temur tuzuklari” asarida har tomonlama aniq, ishonarli va ta’sirchan tarzda yoritilgan, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Amir Temurning bizga meros qilib qoldirgan “Tuzuk”lari nafaqat davlat ishlarida, qonunlarni tartibga solishda, balkim, hayotiy adolatlarni joriy qilishda ham qo’l kelib, bizning hayot tarzimizni tartibga solishda ham yordam berib kelmoqda, desak adashmagan bo‘lamiz. Berilgan tuzukning har bir satrini o’qish davomida bir umr el-yurt, saltanat tashvishi bilan yashagan fidoyi inson, ulkan davlat arbobining keng miqyosdagi o‘y-fikrlari, hayot va kurash tajribasi, mushohadasi, ba’zan esa dardli va iztirobli kechinmalari bilan sug‘orilgan bu asarda qanday teran ma’no mujassam ekanligining guvohi bo‘lamiz. Undagi hech qachon eskirmaydigan hayot hikmatlarining qanchalik to‘g‘ri ekaniga ko‘p bor ishonch hosil qilishimiz uchun ushbu asarga murojaat qilishimiz darkor. Masalan, “Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshirokdir”- degan fikrlar bugungi kunda ham naqadar dolzarb ekani barchamizga ayon. Yoki u zotning: “Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur”- degan ko‘rsatmalarida hozirgi notinch zamon uchun, zamonamiz odamlari uchun ham har jihatdan ibratli fikr va maslahat deb bilish mumkin, bu maslahatlarning ancha asrlar oldin yozib o’tilganligiga qaramay, bizning asrdoshlarimiz uchun hali hanuz eng asosiy g’oya bo‘lib kelayotganligi odamni hayratga solsa ajab emas.

Ushbu asar haqidagi fikrlarning turlicha ekanligi hammamizga ma’lum bo‘lmasada, lekin uning mazmun mohiyati aynan biz yoshlar uchun hozirgi kunda korrupsiya degan baloni yo’q qilishimizga yordam beradigan shunday joylari va berilgan maslahatlari buni tasdiqlaydi. Jumladan, Mamlakatimizning birinchi prezidenti tomonidan ham ushbu tuzuklarning mazmun mohiyatini hozirgi yoshlar o‘qib o‘rganishi va o‘ziga xulosa olishi, hayotda qoqlimasliklari uchun yordamchi kuch bo‘lib xizmat qilishini ham ta’kidlab o’tganlar.

“Bugungi murakkab va tahlikali davrda bu kitobni qayta-qayta mutolaa qilish, uning mag‘zini chaqish birinchi galda rahbar, yetakchi bo‘lishdek mas’uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olgan odamlar uchun, qolaversa, har qaysi ziyoli inson uchun bag‘oyat foydali ekani haqida ortiqcha gapirib o‘tirishga hojat yo‘q, deb o‘ylayman. Ishonchim komilki, yoshlarimiz bu kitobni mehr qo‘yib, tushunib, chuqur anglab o‘qisa, ularning

qalbida milliy g‘urur tuyg‘usi yuksaladi, o‘zining qanday buyuk zotlarning avlodini ekanini yanada chuqurroq his etib, hayotning har qanday sinov va qiyinchiliklarini yengishga qodir insonlar bo‘lib voyaga yetadi.”

“ISLOM KARIMOV”

Asar 2 qismidan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, shu jumladan, Eron, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o‘z tasarrufiga kiritishi, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxonga va Turk sultonni Boyazid I Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan sultanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar buyuk sohibqiron tomonidan bayon etilgan va qog’ozga tushirilgan. Ikkinci qismi esa mashhur bobomizning farzandlariga atalgan o‘ziga xos vasiyat, pandnasihatlari va o‘gitlaridan iborat. Ushbu o‘gitlarning kuchi haligacha o‘z o‘rnini bo’shatganicha yo‘q. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo‘sish boshliqlarini tanlash, armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiylarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo‘sish boshliklarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo‘sini va boshqa xususida gap boradi.

Sohibqiron ochiq yuzlilik, rahm-u shavqat bilan xalqni o‘ziga rom etishni yaxshi bilardi. Soliqlarni raiyatdan kaltaklash va savalash yo‘li bilan emas, balki ogohlantirish, qo‘rqitish, tushuntirish yo‘li bilan undirishni tayinlardi. Hamisha raiyat ahvoldidan ogoh edi, ulug‘larini og‘a qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rardi. Sofdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohi doim ochiq edi. Hamisha adolatga talpinib yashar, jabr-u zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intilardi. Biror kimsaning haqqi bo‘lsa, uni aslo unutmasdi, hech kimdan o‘ch olish payida bo‘lmasdi, ko‘ngli buzuq, himmatsiz kimsalarni majlisiga aslo yo‘latmas, balki majlislarida keyinini o‘ylab, olisni ko‘rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilar suhbatidan bahramand bo‘lardi. Chinakam do‘sit haqidagi quyidagi so‘zlar ham xalqimiz aql-idrokining teranligidan xabar beradi: “Chin do‘sit uldirki, — deydi Amir Temur. — Do‘sitan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi”. Uning bunday mushohadalarini insonni hayratga soladi. Shunday fikrlaydigan odamgina, davlatni va oilaviy hayotni bir xil maromda olib boradi. Sohibqiron bobomiz ham xuddi shunday inson edilar. Hayotiy hikmatlarga to‘la “Temur tuzuklari”ning noyob ma’rifiy obida ekanligidan tashqari, Amir Temur siymosi, saviyasi, ruhiyati, tabiat, bir so‘z bilan aytsak, boy shaxsiyati va insoniyligi haqida bergen ta’riflari juda muhimdir. Amir Temur “Temur Tuzuklari”da adolatni himoya qilguvchi, so‘zi bilan ishi bir, olijanob, kechirimli, dovyurak, qo‘rqmas, zo‘r tadbirlar sohibi, mohir sarkarda, ulug‘ rahbar sifatida namoyon bo‘ladi. U zolimlardan mazlumlar haqqini olishda jonbozlik ko‘rsatadi, chunki u mamlakat kufr bilan turishi

mumkinligini, ammo zulmga dosh berolmasligini yaxshi bilar edi. Hokimlar-u sipohdan qay birining xalqqa jabr-zulm yetqizganini eshitsa, ularga nisbatan darholadolat-u insof yuzasidan chora ko‘radi. Yaxshilarga yaxshilik qilardi, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshiradi. Amir Temurning “ Davlat ishlarining to‘qqiz ulushini kengashga qo‘yadi, faqkat bir ulushinigina qilichga qoldiradi”- degan fikri ham buni tasdiqlaydi.

“G‘anim tomonidan bo‘lgan navkar bizga qarshi qilich ko‘targan bo‘lsa, o‘z yurtining tuzini halollagan bo‘ladi,” — “Tuzuklar”da shunday fikr ham ilgari surilgan. Amir Temurning fikricha, o‘z yurtining tuzini halollagan navkar, u dushman navkari bo‘lsa ham, hurmatga sazovor! Chunki, u o‘z yurtini himoya qildi! Biron navkar tuz haqi va vafodorlikni unutib, yutqizgan vaqtida o‘z sohibidan yuz o‘girib, Amir Temur etagini tutmoqchi bo‘lsa, Sohibqiron uni o‘ziga eng yomon dushman deb biladi. Bular Sohibqironning eng tang vaziyatlarda ham adolat va insofni birinchi o‘ringa qo‘yishiga yorqin dalillardan biridir.

Sohibqironning o‘zi va sultanati borasida yozilajak asarga munosabati, asar qanday yozilishi haqida tasavvuri juda ravshan, talabi esa yuksak ekanligi ayon bo‘lmoqda. Ya’ni, Sohibqiron davlati tarixi yozilganda ortiqcha takalluflarga, lof-u maqtovlarga o‘rin bo‘lmasligi kerakligin ta’kidlab ham o’tgan. Hamma narsa faqat haqqoni yozilishini ham nazorat qilgan. Shomiy Sohibqiron so‘zlarini qo‘llab-quvvatlab: “Yaxshi va ravon so‘z uldirkim, avom xalq uning ma’nosini anglagay, xos kishilar unga ayb qo‘ymag‘ay” - deydi. Sohibqiron bilan muarrixning fikrlari bir joydan chiqadi. Amir Temurning: “Men ana shundoq so‘zni xohlaymen!”- deya ma’qullashi bag‘oyat ibratlidir.

ADABIYOTLAR:

1. Temur Tuzuklari. To’plam. “Yoshlar nashriyot uyi” Toshkent 2018
2. Amir Temur. Vikipediya. Ru.m.org
3. <http://temurtuzuklari.uz>
4. Temur Tuzuklari. Kitob 2018